



UDK:801.8

Dilshoda MAMATOVA,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: mamatovadilmamatova@gmail.com

PhD Sh.Xakimova taqrizi asosida

XITOIY TILIDA “SO‘RAMOQ” SO‘ZI SINONIMLARINING TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada xitoy tilida 打听 dǎtīng, 询问 xúnwèn va 问 wèn fe'llarining sinonimik jihatleri tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida fe'llarning semantik, stilistik va grammatik xususiyatlari solishtirish asosida o'rganib chiqilgan. Har bir fe'lning og'zaki nutqdagi qo'llanish ko'lamini, uslubiy rangdorligi hamda bir-biridan farqli jihatleri real misollar asosida yoritilgan. Maqola xitoy tilini o'rganuvchilar uchun sinonim fe'llarni to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Sinonimiya, sinonim fe'llar, 打听, 询问, 问, leksik semantik tahlil, grammatik xususiyat, to'liqllovchi.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СИНОНИМОВ СЛОВА «СПРОСИТЬ» В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье анализируются синонимические особенности глаголов 打听 dǎtīng, 询问 xúnwèn и 问 wèn в китайском языке. В ходе исследования семантические, стилистические и грамматические характеристики данных глаголов были изучены на основе сопоставительного анализа. Сфера употребления каждого глагола в устной речи, их стилистическая окраска и отличительные особенности раскрываются на примере реальных языковых фактов. Статья имеет важное практическое значение для изучающих китайский язык и способствует формированию навыков правильного употребления синонимических глаголов.

Ключевые слова: Синонимия, синонимические глаголы, 打听, 询问, 问, лексико-семантический анализ, грамматические особенности, дополнение.

A LINGUISTIC ANALYSIS OF THE SYNONYMS OF THE WORD “TO ASK” IN THE CHINESE LANGUAGE

Annotation

This article analyzes the synonymic features of the verbs 打听 dǎtīng, 询问 xúnwèn, and 问 wèn in the Chinese language. During the research, the semantic, stylistic, and grammatical characteristics of these verbs were examined through a comparative approach. The scope of their usage in spoken discourse, their stylistic coloring, and their distinctive features are illustrated with authentic examples. The article is of significant practical value for learners of Chinese, as it contributes to the development of correct usage skills of synonymic verbs.

Key words: Synonymy, synonymic verbs, 打听, 询问, 问, lexical-semantic analysis, grammatical features, object.

Kirish. Hozirda xitoy tilida yurtimizda bog'cha, maktab, oliy ta'lim muassasalarida o'qitilmoqda. Natijada, xitoy tilini o'rganishga bo'lgan talab oshib, sinonimlarni to'g'ri qo'llash bilan muammosi turibdi. Sinonim so'zlarni og'zaki va yozma nutqda o'z o'rnida ishlatish nutqiy g'alizlikni oldini oladi.

Xitoyning mashhur lingvistlaridan hisoblangan Vang Huan chet ellik xitoy tilini o'rganuvchilar uchun 420 dan ortiq sinonimlar guruhini o'rganib chiqqan va tahlil qilgan. Ushbu maqolada qo'llanilgan “打听”, “询问” va “问” sinonim fe'llari xitoy tilida “so'ramoq” ma'nosini ifodalovchi eng faol sinonim birliklardan bo'lib, ular og'zaki va yozma nutqda turli uslubiy vazifalarni bajaradi. Ushbu fe'llar umumiy semantik ega bo'lsa-da, ularning grammatik imkoniyatlari, stilistik ranglari va kontekstga bog'liq ma'no nozikliklari bir-biridan farq qiladi. Shu sababli, ushbu maqolada fe'llarning o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilish hamda ularni nutqda to'g'ri qo'llash mezonlarini aniqlash maqsad qilib olindi.

So'zlarning ma'nodoshligi, tilda sinonimlarning mavjudligi nutqni chiroyli va ifodali bayon etishda aks qotadi. Sinonimlarni o'rganish, ayniqsa, tilni endi o'rganishni boshlaganda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy xitoy tilida keng tarqalgan sinonim so'zlarning o'xshash va farqli jihatlarini o'rganib chiqish, nutqda chalkashtirib yubormaslikka asos bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xitoy tilidagi sinonimlarni o'rganish masalasi ko'plab tilshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan bo'lib, bu yo'nalishda yaratilgan ilmiy manbalar xitoy tilini chet tili sifatida o'rganuvchilar uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Jumladan, Yang Xuemeining “汉语近义词辨析” asarida sinonim so'zlarning semantik va stilistik farqlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Ushbu qo'llanmada 打听 va 问 fe'llarining qo'llanish doirasi, nutqdagi vazifalari hamda ularning o'zaro farqli jihatleri misollar orqali yoritib berilgan.

Yang Jizhou va Jia Yongfen muallifligidagi “1700 对近义词语用法对比” asari xitoy tilidagi sinonimlarning eng keng qamrovli ilmiy tadqiqotlaridan biri hisoblanadi. Mualliflar ushbu asarda 1700 dan ortiq sinonim juftliklarni tahlil qilib, ularning grammatik va funksional xususiyatlari qiyosiy solishtirilgan. Mazkur manbada 打听, 询问 va 问 fe'llarining og'zaki va yozma nutqda qo'llanish farqlari, shuningdek, ularning ma'noviy jihatleri aniq misollar asosida ko'rsatib berilgan.

“汉语近义词学习手册” qo'llanmasida esa sinonimlarning amaliy qo'llanilishiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, unda 打听 va 问 fe'llarining qaysi vaziyatlarda almashib ishlatilishi mumkinligi izohlangan. Ushbu qo'llanma xitoy tilini o'rganayotgan talabalar uchun ham metodik jihatdan muhim manba hisoblanadi. Shuningdek,

“汉语近义词典” lugʻatida 询问 feʻlining rasmiy uslubga xosligi, 问 feʻlining esa koʻproq ogʻzaki nutqda ishlatilishi taʼkidlangan.

Tadqiqot metodologiyasi. 打听 询问 sinonim qatori tahlili:

Har ikki soʻz feʻl soʻz turkumiga oid boʻlib, “soʻramoq” degan maʼnoni anglatib keladi: 他打听 询问了老人的身体和生活情况.

U qariyalarning salomatligi va yashash tarzini soʻradi.

Jumlada hol-ahvol soʻrash maʼnosida 打听 hamda 询问 feʻllari sinonimiya hosil qilgan va almashinib qoʻllanila oladi.

打听 va 询问 feʻllarining farqlari quyidagicha:

打听 feʻli koʻproq ogʻzaki uslubda, 询问 feʻli kitobiy uslubda qoʻllaniladi:

我跟你打听一下, 附近有邮局吗?

Sizdan soʻrasam maylimi, atrofda pochta bormi?

Gapda 打听 feʻli odatiy koʻchada ogʻzaki holatda qoʻllanilib kelgan.

他仔细地询问了公司近年来的发展情况.

U diqqat bilan firmaning oxirgi yillardagi rivojlanish holati haqida soʻradi.

Jumlada 询问 feʻli kitobiy va rasmiy uslub qoidasiga muvofiq qoʻllanilgan.

打听 feʻli odatda soʻrab-surishtirganda, koʻproq maʼlumot izlaganda qoʻllanilib, “到” natija toʻliqlovchisi bilan qoʻllaniladi: 我到处打听也没打听到这家公司.

Hamma joydan surishtirib, bu firma haqida hech narsa eshitmadim.

询问 feʻlidan keyin “到” natija toʻliqlovchisini qoʻllab boʻlmaydi, shuningdek, fikr-mulohaza soʻralganda ishlatiladi. Fikrimiz isboti sifatida quyidagi gap tahliliga eʼtibor beradigan boʻlsak, 询问 – “soʻramoq” feʻli professordan maqola haqidagi fikrini soʻrashda qoʻllanilib kelgan: 他打电话询问刘教授对论文意见.

Liu professorga qoʻngʻiroq qilib, ilmiy ish haqidagi fikrlarini soʻradim.

询问 feʻlidan keyin harakatning obyektini bilan qoʻllaniladi, ot boʻlib ham kela oladi: 警察询问了当天见过他的邻居.

Militsioner oʻsha kunda uni koʻrgan qoʻshnisi soʻroq qildi. (询问 soʻzi gapda feʻl vazifasini bajarib kelgan) 他详细地回答了病人的询问.

U bemorning soʻroqlariga batafsil javob berdi. (bu gapda 询问 ot vazifasini bajargan) 打听 feʻli ot boʻlib kelmaydi, shuningdek 打听 feʻlidan keyin harakatning obyektini bilan qoʻllanilish holatlari ham uchramaydi. [6, 48]

打听 va 问 feʻllari oʻzganidan maʼlum ishni bilish uchun soʻraganda ishlatiladi.

“打听” feʻlining maʼnosi odatda, soʻrovchiga aloqasi boʻlmagan yangilik va maʼlumotlarni soʻraganda, soʻrovchining fikr va qarashlari muhim boʻlmagan holatlarda ishlatiladi. “打听” feʻlidan keyin odatda, aniq mazmun bayon etilmay, faqatgina “一下” yoki reduplikatsiyaga uchrab keladi, shundagina aniq holatni soʻrash mumkin boʻladi. “打听” feʻli toʻgʻridan-toʻgʻri aniq holatni soʻraladigan soʻz bilan bogʻlanmaydi. Misol uchun, 打听一下, 去故宫怎么走? soʻrasam maylimi, Gugong saroyiga qanday boriladi? Gapida

	~ 一下	~ 消息	~ 他的电话	路 ~	好 ~	问题 ~	事外 ~
问	√	√	√	X	X	X	X
打听	√	√	√	√	√	√	√

打听 feʻlining soʻramoq maʼnosi bor, ammo toʻldiruvchisi xabar, shaxs kabilar boʻladi, “问” feʻlining maʼnosi koʻproq.

我可以打听一个人, 不知道你是否认识?

打听 feʻli toʻgʻridan-toʻgʻri soʻraladigan obyekt bilan bogʻlanmay, 一下 yordamchi feʻli orqali bogʻlanib kelmoqda. 你去打听有什么新消息. Qanday yangilik borligini borib soʻra. Gapida ham 打听 feʻli bevosita “新消息” (nima yangiliklar) birikmasi bilan bogʻlanib kelmagan. [1; 59-60]

“问 – soʻramoq” feʻli boʻlsa, boshqalardan faktlarni, ularning shaxsiy maʼlumotlari va fikrlarini soʻraganda keng qoʻllaniladi. “打听” feʻlidan farqli ravishda “问” feʻli soʻralayotgan obyekt bilan bevosita bogʻlanish xususiyatiga ega: 问你一个问题. Sizdan bir savol soʻrasam. Gapida 问 feʻli bevosita “你”- sen soʻzi bilan bogʻlanib qoʻllanilgan.

我可以问一下您的收入情况吗? Sizning oylik daromadingiz haqida soʻrasam, maylimi? (问 feʻli shaxsiy maʼlumotlarni soʻraganda ishlatilmoqda)

“打听” ning toʻldiruvchisi koʻproq “消息”, “下落”, “情况” kabilar boʻlsa, “问” feʻli odatda “问题” (savol) soʻzi bilan birikma hosil qiladi.

Soʻramoq maʼnosini bildirganda “问” va “询问” feʻllari ham sinonimiya hosil qiladi. [3, 420-421] ularning asosiy farqlaridan biri, “问” soʻzi ogʻzaki, “询问” kitobiy uslubga xosligidir. Har ikki feʻl ham fikr soʻrashda va surishtirmoq maʼnosini anglatilib keladi. 许多留学生给招生办公室打电话, 询问/问 怎么报名. Koʻplab chet ellik talabalar roʻyxatga olish boʻlimiga qoʻngʻiroq qilib, roʻyxatga olish tartibini soʻradi. Bu gapda ikki feʻl almashinib ishlatila oladi.

“问” feʻli savol berilganda, javob berishilishi lozim boʻlgan hollarda qoʻllanilganda, tashvishlanish, soʻroq qilish, aralashish maʼnolarida keladi, bu holatda “询问” feʻli bilan almashilinish qoʻllanilmaydi: 老师问学生什么是补课.

Oʻqituvchi talabadan toʻliqlovchi nima ekanligini soʻradi. Bu gapda 问 feʻlini 询问 feʻliga oʻzgartirib boʻlmaydi.

Xitoy tilidagi sinonimlarni tadqiqi bilan shugʻullangan Yang Jizhou chet ellik tabalalarga dars berish jarayonida sinonimlar bilan bogʻliq koʻplab savollarga duch keladi. Natijada 1718 juft sinonimlarni oʻrganib, ularning oʻxshash va farqli jihatlarini oʻzining «1700 对近义词语用法对比» asarida izohlab beradi. Muallifning taʼkidlashicha, xitoyliklar sinonimlarni qoʻllashda, oʻz fikrlarini bayon etishda hech bir qiyinchilikka duch kelmaydi. Ammo chet ellik xitoy tilini oʻrganuvchilar hamda xitoy tilida soʻzlashuvchilar xitoy tilidagi sinonimlarni qoʻllashda tez-tez xatoliklarga duch keladi [2].

Muallifning “打听” va “问” feʻllariga bergan taʼrifi quyidagicha:

打听 yangilik, xabar haqida soʻrab-surishtirganda keng qoʻllaniladi.

问 feʻli inson tushunmagan, bilmagan ish va sababni soʻraganda ishlatiladi: 问路 yoʻlni soʻrash (bilmagan narsani soʻrash holatida qoʻllanilmoqda), shuningdek, gʻamxoʻrlik qilib, soʻrash, kasalni koʻrishga borish maʼnosini ham anglatib keladi:

向王老师问好. Vang ustozni soʻrab qoʻying.

打听 va 问 feʻllarining soʻz birikmalari bilan qoʻllanilishi:

Bir odamni soʻrasam, tanirkanmisan yoki yoʻq? [2; 297-298]

Gapda soʻrab bilmoq maʼnosini anglatib kelgan.

Xulosa. Tadqiqotning tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, 打听, 询问 va 问 fe'llari barchasi "so'ramoq" ma'nosini ifodalasa-da, ularning nutqda qo'llanish shakli va foydalanish imkoniyatlari bir xil emas. 打听 fe'li ko'proq og'zaki nutqda ishlatiladi, 询问 esa asosan rasmiy va yozma uslubga xos bo'lib, fikr yoki munosabat bildirishda, so'rashda qo'llaniladi. 问 fe'li esa eng keng qo'llaniladigan birlik bo'lib,

shaxs yoki obyekt bilan bevosita bog'lanib, savol berish va ma'lumotni aniqlashtirish jarayonini ifodalaydi.

Ushbu fe'llarni nutqda to'g'ri tanlab ishlatish xitoy tilida fikrni aniq, mantiqiy va tabiiy ifodalashga xizmat qiladi. Tadqiqot natijalari xitoy tilini o'rganuvchilar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, sinonim fe'llarni kontekstga mos holda to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi. Kelgusida mazkur yondashuv asosida boshqa fe'l sinonimlarini ham qiyosiy o'rganish ilmiy jihatdan samarali bo'lishi kerak.

ADABIYOTLAR

1. 杨雪梅《汉语近义词辨析》，北京语言大学出版社，2011. 293 页。
2. 杨霁州 贾永芬《1700 对近义词语用法对比》，北京语言大学出版社，2009. 1641 页。
3. “汉语近义词学习手册” 牟淑媛 王硕。-北京：北京出版社，2004.5 页。
4. “汉语近义词典”：汉英双解/ 王还。-北京：北京语言大学出版社，2005. 508 页
5. Ван Шо, Моу Шуюань Синонимы китайского языка. Справочник / Пер. с кит. А. Сулеймановой. — М.: ООО Международная издательская компания «Шанс», 2019. — 207 с. — (Справочники по китайскому языку).
6. 姜丽萍《HSK标准教程 5 上》北京语言大学出版社，2014. 183 页。
7. 姜丽萍《HSK标准教程 6 上》北京语言大学出版社，2014. 232 页。
8. Sultonova L.A. “Xitoy tili leksikologiyasi”, T-2015., 170 b.
9. Gorelov V.I. Leksikologiya sovremennogo kitayskogo yazika- M.,1984.- C.122
10. <https://jinyifanyi.bmcx.com/>
11. https://jinyifanyi.bmcx.com/%E5%A6%82%E4%BD%95__jinyifanyi/